



**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIK
TA'LIM O'QITUVCHILARIGA "VALENTINA" DASTURIDAGI AMALLAR
KETMA-KETLIGINI O'RGATISH**

Ismailova Momogul Hamraboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Valentina" dasturida ishlaganda, har bir foydalanuvchi andaza yaratishda istalgan asboblardan o'z xohishiga ko'ra foydalanishi va konstruksiya uslubiga qarab turli obyektlarni turlicha ketma-ketlikda ishlatishi mumkinligi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *"Valentina" dasturi, andoza, detal, kontrol belgilar, formulalar.*

Аннотация. *В данной статье указано, что при работе в программе «Valentina» каждый пользователь может по своему усмотрению использовать любые инструменты при создании шаблона и, в зависимости от стиля конструкции, применять различные объекты в разной последовательности.*

Ключевые слова: *«Valentina», шаблон, деталь, контрольные метки, контрольные метки*

Abstract. *This article states that when working in the "Valentina" program, each user can use any tools at their discretion when creating a pattern and may use various objects in different sequences depending on the construction style.*

Keywords: *Valentina program, pattern, pattern piece, control points/marks, formulas*


Kirish. Dasturda o'zgaruvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Bu holat chizmalarni yaratishda albatta inobatga olinishi kerak. Dasturda amallar aniq ketma-ketlikda bajarilishi belgilangan. To'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik shuni anglatadiki, keyingi amallar oldingi obyektlar uchun ko'rinmaydi.

Ba'zi andaza tuzish algoritmlarining mualliflari ushbu tamoyilga rioya qilmaydi, bu esa bir nechta chizmadan iborat andazalarni yaratishni imkonsiz holga keltiradi. Bunday holatda, barcha hisob-kitoblarni bitta chizmada amalga oshirishingizni tavsiya qilamiz, bunda alohida chizmalarni qurish uchun shartli bazaviy nuqtalarni yaratishimiz kerak bo'ladi.


Dasturdagi bu xususiyatni rasmlar yordamida ko'rib chiqamiz.

Masalan, bir tikuvli yengning o'rnatiladigan chizmasi qurilgan. Endi yengning yuqori qismida (okat bo'ylab) erkinlik (posadka) ni taqsimlash kerak, bu esa chizmada yengning yuqori nuqtasi (B2 nuqtasi)ni hosil bo'lgan erkinlik miqdoriga qarab siljitishni anglatadi.






Chizmada B2 nuqtasining yakuniy holati bir nechta parametrga, jumladan, Pos_A52 kesmaning uzunligiga (chizmada bu nuqtalar a13 qo'shimchalari bilan ko'rsatilgan) bog'liq. B2 nuqtasining joylashuvini formulalar yordamida belgilash uchun Posa13_A52a13 kesmasini yaratamiz, ya'ni ko'rsatilgan nuqtalarni chiziq bilan ulaymiz. Rasmda ushbu kesma nuqta chiziq bilan ajratilgan.



Endi B2 nuqtasining joylashuvini aniqlash uchun formulani belgilaymiz. Formular tahrirlash oynasiga kiramiz:






Formulalar tahrirlash oynasida kerakli kesmani topib bo'lmadi. Buning sababi shundaki, Posa13_A52a13 kesmasi B2 nuqtasi yaratilgandan keyin chizilgan. Ya'ni, B2 nuqtasidan oldin yaratilgan barcha obyektlarni dastur ko'radi va ulardan foydalanishi mumkin. Ammo B2 nuqtasidan keyin chizmada yaratilgan hamma narsani dastur ushbu nuqta nuqtai nazaridan ko'ra olmaydi. Mana shu yerda o'zgaruvchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik namoyon bo'ladi: Keyingi barcha amallar oldingi obyektlar uchun ko'rinmaydi. Dastur ushbu kesmani ko'rishi uchun uni B2 nuqtasini yaratishdan oldin chizish kerak edi.

Bunday vaziyatda chizmaning bir qismini qayta qurmaslik uchun "Tarix" (Историю) yorlig'idan foydalanish mumkin. Ushbu yorliq o'zining asosiy vazifasidan tashqari obyektlarni qurilish jarayonida boshqarishga, ya'ni chizma qurilishining ketma-ketligini o'zgartirishga imkon beradi. Ammo "Tarix" (Историю) xususiyatidan faqat zarurat bo'lganda foydalanish tavsiya etiladi, chunki bunda o'zgaruvchilar orasida siklik bog'liqlik yuzaga keladi, bu dastur tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi."

Ushbu amalni bajarishdan oldin faylingizning nusxasini saqlang, chunki muvaffaqiyatsiz urinish holatida fayl buzilib qolishining oldini olasiz.

Demak, "Tarix" (Историю) bo'limiga kiramiz:







“Tarix” (Историю) oynasining pastki qismida dastur tomonidan bajarilgan oxirgi amal — Posa13_A52a13 kesmasini qurish yozilgan. Ushbu satr chapidagi strelka dastur tomonidan bajarilgan so‘nggi amalga ishora qilmoqda.


Bizga esa, bu kesma V2 nuqtasi yaratilishidan oldin qurilishi kerak.

Buning uchun “Tarix” (Историю) oynasida V2 nuqtasini qurish amalini topamiz va strelkani bir pozitsiyaga yuqoriga ko‘chiramiz.





Va tarix (Историю) oynasini yopmasdan turib, ushbu chizmada kerakli kesmani qaytadan yaratamiz (nuqtalarni punktir chiziq bilan birlashtiramiz):




Yaratilgan kesma darhol “Tarix” (Историю) oynasida paydo bo‘ldi. Faqat endi bu amal V2 nuqtasi yaratilishidan oldin bajarilgan hisoblanadi. Shunday ekan, V2 nuqtasi uchun formulani kiritishda, dastur ushbu kesmani ko‘radi.





Keyin, “Tarix” (Историю) oynasida strelkali kursorni yana avvalgi joyiga – oynaning pastiga, dastur tomonidan oxirgi bajarilgan amalga – qaytaramiz va bu oynani [OK] tugmasini bosib yopamiz.

Endi formulalarni tahrirlash oynasiga kirib, natijani tekshirish mumkin:



Yangi kesma formulalarni tahrirlash oynasida aks etdi. Endi uni kerakli formulani yaratish uchun ishlatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.«Валентина» («Valentina») программа для создания и моделирования лекал одежды Роман Тележинский, Ольга Краснящих. [1.33-с.]

2.S.I.Sharipova, D.F.Djalolova «Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasi» O‘quv qo‘llanma -Toshkent: 2021.- 124 b.

3. Surikova G.I. Proektirovanie raskladok lekal detaley odejdy v SAPR: Uchebnoe posobie / G.I. Surikova, M.V. Surikova, O.V. Surikova, Ivanovo: IGTA, 2005. - 152 s.

4. Masalova V.A. Konstruktivnoe modelirovanie odejdy pervogo vida (s ipolzovaniem SAPR AutoCAD): Metod.posobie / Masalova V.A., Maslova E.G. – M.: IITS MGUDT, 2006. – 17s.

5. Z.Davletsheva. Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma.Toshkent “Sano standart” nashriyoti 2017 yil.

6. S.Tashpulatov, F.Alqarov, G.Alimova, Z.Xaqnazarova, B.Muxtorov, S.G‘ofurova. Kiyimlarni kompyuterda loyihalash asoslari. T, "Ilm ziyo". 2014.

7. D.Tkachev. Samouchitel AutoCAD. 2004. ZAO. Izdatelskiy sentr "Akademiya". 2010.176 s.